



## SABZAVOT EKINLARI KO`CHATLARINI MASHINADA EKISHNING AHAMIYATI

Mukimov Zoxidjon Alijonovich

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

[Zoxidjonmukimov1974@gmail.com](mailto:Zoxidjonmukimov1974@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sabzavot ekinlari ko`chatlarini ekishni mexanizatsiyalashtirishning asosiy mohiyati shundan iborat bo`lyaptiki, aholini ertangi vitaminlarga boy bo`lgan sabzavot maxsulotlari bilan ta`minlash dolzarbligini inobatga olib, sabzavot ekinlari ko`chatlarini qishloq xo`jalik mashinalarda qisqa muddatlarda kam harajat qilib va sifatli ekishda ekin maydoniga, ekiladigan sabzavot ko`chatlarga bo`lgan talab, ekish muddatlari va boshqa agrotexnik talablarni haqidagi boshqa ilmiy asoslangan ma`lumotlarga ega bo`lamiz.

**Kalit so`zlar:** Maydon, sabzavot, ko`chat, mashina, ekish, usullari, tuproq, qator, chuqurlik, pushta, tuproq namligi.

O`zbekiston sharoitida sabzavot ekinlari pushta olinib va ularga ishlov berilib ekiladi. Ammo maxsus seyalkalar bo`lmaganligi sababli sabzavot ko`chatlarini ekish mahalliy sharoitga moslashmagan xorijiy seyalkalar hamda ilmiy jihatdan asoslanmagan yasama moslamalar bilan daladan ko`p martalab o`tilib bajarilib kelinmoqda. Bu esa o`z navbatida mehnat, ish vaqti, yonilg`i sarfi va boshqa xarajatlar ortib ketishi, mahsulotning tannarxining oshishiga olib keladi. Shu jihatdan sabzavot urug`larini ekishda agregatning daladan bir o`tishida bir nechta tadbirlarni amalga oshiradigan energiya-resurstejamkor agregatlarni yaratish va ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda sabzavot ekinlari ko`chatlarini ekadigan resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarini ishlab chiqish, mavjud mashinalarning ish jarayonida resurstejamkorlikni ta`minlashga yo`naltirilgan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo`nalishda ekishga tayyorlangan dalalarda pushtalarni shakllantirib, ularning tepasiga sabzavot ko`chatlarini qatorlab ekadigan seyalka konstruksiyasini ishlab chiqish, uning pushtaolgichiga o`rnatilgan tekislagichi va iskanasining tuproq bilan o`zaro ta`sirlashish jarayonlarida agrotexnik talablar darajasida ishlashini ta`minlaydigan parametrlarini asoslash bo`yicha maqsadli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.


Sabzavot ekinlari ko`chatlarini ekiladiga ekin maydoni kuz faslining noyabr oyida 30-40 sm chuqurlikda shudgor qilingan maydonlar mart oyida ikki marta chizellanadi va molalanadi. Shundan so`ng 70 sm oralig`ida kultivatorlar yordamida egat olinadi.

Sabzavot ekinlari ko`chatlarini tayyorlash uchun sabzavot urug`larini qishning oxirida issiqhonalarda ekib o`stirib, ko`chat qilib, bahorda mart oyining ikkinchi yarmidan so`ng ob-havo sharoitiga qarab karam, pomidor, shirinqalampir va baqlajon singari issiqsevar o`simlik ko`chatlarini ochiq dalalarda ekiladi. Mashina yordamida ekish uchun 40-45 kunlik, bir hil o`lchamdagi, barglari to`q yashil, ildizlari durkun rivojlangan, so`limagan,



ezilmagan kopchatlar saralanib, olinadi. Karam kopchatlari 12-15 sm balandlikda (5-6 ta bargga), pomidor kopchatlari 20-25 sm (8-10 ta bargga) balandlikka ega boplishi kerak.

Ko`chatlar qatorlar oraligpi 60, 70, 80, 90 sm li qatorlarga keng qatorlab, yoki 50+90, 60+120 sm sxemada tasmasimon usulda 50 ot kuchigacha ega bo`lgan traktorlarga osilgan SKN-6A rusumli ko`chat o`tqazish mashinasini yordamida ekiladi. 50 ot kuchida katta bo`lgan traktorlarga ko`chat o`tqazish mashinasini osilsa, erta bahorda ekin maydonlari zichlashib tuproq strukturasi buzulishiga olib kelishi mumkin. SKN-6A rusumli ko`chat o`tqazish mashinasini ko`chat ekish jarayoni quyida ko`rsatilgan texnologik jarayonlari asosida ish bajaradi. Bunda ko`chat o`tqazish mashinasi belgilangan texnologik jarayonlari mexanizator 1 nafar ishchi nazorati asosida ekiladi.



### *SKN-6A kopchat o`tqazish mashinasini ish jarayoni sxemasi*

1-tayanch yuritish gpildiragi; 2- kopprik; 3 va 10- oldingi va orqa oprindiqlar; 4- soshnik; 5- optqazuvchi disk; 6 va 9- ushlagichlar; 7,8 va 19- kopchat solingan yashiklar; 11- tent; 12- zichlovchi gpildirakchalar; 13- sug`porish trubasi; 14- dozalovchi qurilma; 15 va 17- zanjirli uzatmalar; 16- reduktor; 18- topkish trubasi; 20- stellaj; 21- bak.

Mashinada ko`chatni tik holatda, ildizlarini bukmasdan, shikastlantirmasdan, bexato optqazish talab qilinadi. Tuvaksiz kopchatlar 5-15 sm, tuvagi bilan kamida 10 sm chuqurlikka ko`miladi. Tayinlangan chuqurlik  $\pm 2$  sm aniqlikda boplishi, kopchat atrofidagi tuproq zichlanishi kerak. Sug`oriladigan dehqonchilikda ekish bilan bir yo`la jopyaklar ham olinadi.

Qatorlar to`g`ri chiziqli bo`lishi, belgilangan kenglikdan chiqishi  $\pm 2$  sm (tutash qator uchun  $\pm 7$  sm) dan oshmasligi kerak. Tuvaksiz kopchatni 95%, tuvakli kopchatlarni 100% ildiz olishiga erishish kerak. Ekin qatorlaridagi ko`chatlar oralig`i 10-140 sm gacha bo`lishi mumkin.

Ko`chatlar ekib bo`lingandan so`ng tuproq namligiga e`tibor qaratish, talab etilsa sug`orish lozim. Oradan 2-3 kun o`tgach egatlar ko`zdan kechirilib, xato joylarga ko`chat ekiladi. Egatlarning oralarini 15-16 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinib, o`simliklar atrofi yumshatiladi, ma`danli o`g`itlar bilan oziqlantiriladi va sug`oriladi.



Ertagi muddatda barvaqt sabzavot ekinlarini ko'chatini ekib yetishtirilgan, o'suv davridagi barcha agrotexnika tadbirlari o'z vaqtida amalga oshirilgan maydonlardagi sabzavot mahsulotlari erta yetilib, yig'ishtirib olinadi. Ushbu maydonlarni o'z vaqtida qayta ekishga tayyorlab, takroriy sabzavot ekinlarini qulay muddatlarda ekib, ulardan mo'l hosil yetishtirishga erishiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Закирова С.Х., Низомиддинова М.Ш., Муқимов З.А., Жалилов Э.К. Пески центральной Ферганы // Экономика и социум. 2021. №5-1 (84). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/peski-tsentralnoy-fergany> (дата обращения: 30.03.2023).

2. X.A.Idrisov, Z.Mukimov va boshqalar. Results of Analytical Study of Growth, Development and Grain Yield of Mung Bean (*Phaseolus Aureus Piper*) Varieties. Turkiya. Vol.37, No.3, 2022. 8880-8886. 2022 y.

3. N.I.Teshaboyev, Mukimov Z., A.Iminchayev, Sh.Sh..Muhammadjonova. EFFECTS OF DEEP TILLAGE OF COTTON ROWS ON COTTON YIELD. 1 tom. 326-331 bet. Uzbekistan. 2021/6.

4. Mukimov, Zoxidjon Alijonovich. G'o'za qator oralariga birinchi ishlov berishda qatqaloqni yumshatishning ahamiyati // orienss. 2022. №10. Url: <https://cyberleninka.ru/article/n/g-o-za-qator-oralariga-birinchi-ishlov-berishda-qatqaloqni-yumshatishning-ahamiyati> (дата обращения: 30.03.2023).

5. Teshaboyev Nodirbek, Mamadaliyev Muhammadkarim, Muqimov Zohidjon. Natural screen sanded sands field water capacity. №9.11 tom. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 1080-1082. South Asian Academic Research Journals, A Publication of CDL College of Education. 2021.

6. Sh.P. Saripov, Z.Mukimov. Kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichi tuproq suruvchi plastinalarning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatish burchagini aniqlash. Yuqori samarali qishloq xo'jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari. T 1. 164-168 b. Uzbekistan.

7. Sotvoldiev Nozimjon Zikiryaevich, Mukimov Zohijon Alizhanovich. Selection And Justification of the Kinematic Scheme of the Grapple Mechanism of the Loader. Texas Journal of Multidisciplinary Studies Texas Journal of Multidisciplinary Studies. T 15. 59-63. 2022/12/14.

8. Mukimov Z. Yerlarni joriy sho'r yuvishga tayyorlash va o'tkazish. Ilmiy habarlar. Ilmiy habarlar. T 1. 1574. Uzbekistan. 2022/12.

9. Mukimov Z. Tok o'simligini kesishning o'ziga xos xususiyati. Ilmiy xabarlar. T 1. 1599. Uzbekistan.

10. Mukimov Z. Mevali ko'chatlarni ekish ishlariga tayyorlashning ahamiyati. Ilmiy xabarlar. T 1. 1643 s. Uzbekistan.



11. M.G`oziyev, Z.Mukimov va boshqalar. Bedani vilt inspektsiyasi va tuproqning biologik faolligi.. Agrokimyohimoya va o'simliklar karantini. T 1. Toshkent. 6-son. 28-29 b. Uzbekistan. 2022 y.

12. Маматожиёв Ш. И. И др. Факторы, влияющие на процессы хранения зерна и на показатели качества //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-4 (81). – С. 75-78.

13. Anvarjonovich D. Q., Ogli X. M. B. The effect of grain moisture on grain germination during grain storage //academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. II. – №. 5. – С. 418-421.

14. Idrisov X., Matholiqov R., Xoliqov M. Kuzgi bug 'doydan keyin ekilgan mosh navlarining simbiotik faoliyatini o'rganish //o'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 51-56.

15. Маматожиёв Ш. И. И др. Преимущества новой системы при приемке зерна //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-2 (81). – С. 96-99.

16. Davronov Q. A., Xoliqov M. B.. Kuzgi bug 'doy navlarini saqlash davrida urug 'lik namligini unuvchanligiga ta'sirini o'rganish //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 1318-1325.